

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA XORIJ TAJRIBALARINI TADBIQ ETISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Nosirov Muzaffar Tolib o'g'li

Farg'ona viloyati Rishton tumani

42-umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori

muzaffarnosirov1992@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14737021>

Annotatsiya: Ushbu maqolada PIRLS, TIMSS, PISA va TALIS kabi xalqaro baholash tadqiqotlarida yuqori natijalarni ko'rsatgan mamlakatlarning ta'lim sifatini baholash tizimi o'rganilgan. Tadqiqot ob'ekti sifatida Singapur, Finlyandiya, Xitoy Xalq Respublikasi kabi davlatlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: PIRLS, TIMSS, PISA va TALIS kabi xalqaro baholash tadqiqotlari, o'qish savodxonligi, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy savodxonlik, ta'lim sifati, ta'lim sifatini boshqarish.

BMT ning Ta'lim darajasi indeksida 2020 yil ma'lumotlariga ko'ra O'zbekiston 189 mamlakat orasida 71 o'rinni egalladi¹. Bu albatta, mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlarning, uzluksiz ta'limning yo'lga qo'yilganligi va aholining 99,9 foizining maktab ta'limiga jalb etilganligining natijasidir. Ammo zamonaviy rivojlangan mamlakatlarda bolalarning maktabga jalb etilishining va savodxonligining o'zi yetarli emas. Ularda ta'limning sifati boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasi, o'quvchilarning matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasi, o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasi, rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlari bilan belgilanadi. Boshqacha qilib aytganda, PIRLS, TIMSS, PISA va TALIS kabi xalqaro baholash tadqiqotlari ushbu davlatlarda ta'lim sifatini aniqlab beradi.

Ta'lim sifatini baholash - mezonlar, ko'rsatkichlar va boshqalardan foydalangan holda turli yondashuvlar, tartiblar asosida amalga oshiriladigan murakkab, ko'p qirrali jarayon. Ta'lim sifati ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyati sifatida aniqlanishi mumkin, u amalda erishilgan ta'lim natijalari va ta'lim jarayonini tartibga solish talablariga, ijtimoiy va shaxsiy talablarning shartlariga muvofiqlik darajasini aks ettiradi. Ta'lim sifati o'quv adabiyotlarining sifati va standartlarga javob berishidan, o'qituvchining bilim va tajribasigacha bo'lgan tizimni o'zida aks ettiradi.

Ushbu bo'yicha N.A. Zaichenko «ta'lim xizmatlari sifatining akkumulyatorlari» ro'yxatiga quyidagilarni kiritadi:

resurslar sifati - kadrlar, kitoblar, moliya, kapital resurslari, o'quv bazasi, axborot;

muassasalarning sifati - rasmiy va norasmiy qoidalar – maktabdagi o'quv jarayoni, obro'si, maqomi;

tashqi muhit sifati - hudud, aholi, ekologiya ;

faoliyat natijasi sifati: yagona davlat imtihoni, akkreditatsiya ko'rsatkichlari, maktab uchun tanlovning mavjudligi;

¹ Почему в Сингапуре лучшая в мире система образования? // <https://orensau.ru/ru/obuchenie/pochjemu-vsingapurje-luchshaja-v-mirje-sistjema-obrazovanija>

ijtimoiy kapitalning sifati: otaonalar va bolalar - maktab kontingentini tashkil etuvchi oilalar sifati;

xususiy investorlarning mavjudligi³.

Ta'lim jarayonini tashkil etish ko'rsatkichlariga o'quv sharoitlari, inson salohiyati (oliy ma'lumotli o'qituvchilarning ulushi, yuqori toifadagi o'qituvchilarning ulushi, 30 yoshgacha bo'lgan o'qituvchilarning ulushi, nafaqaxo'rlarning ulushi, professoro'qituvchilar tarkibi, o'quv yuklamalari bo'yicha o'qituvchilarning taqsimlanishi, boshqaruv ma'lumotiga ega bo'lgan rahbarlarning ulushi), sog'liqni saqlash (1 va 2-sog'lomlashtirish guruhlar talabalari ulushi, 100 o'quvchiga to'g'ri keladigan jarohatlar soni, issiq ovqat bilan ta'minlangan talabalar ulushi), sinfdan tashqari ishlar (sport seksiyalariga jalb qilingan o'quvchilar ulushi, ijodiy jamoalarga jalb etilgan o'quvchilar ulushi) kabilar kiradi.

Singapur ta'lim tizimiga kelsak, ko'pincha unga nisbatan «mo'jiza» atamasi qo'llaniladi. Darhaqiqat, bor-yo'g'i 45 yil ichida birorta ham xalqqa ega bo'lmagan qashshoq davlatda dunyodagi eng muvaffaqiyatli ta'lim tizimlaridan birini yaratishi hayratlanarli. So'nggi o'n yil ichida Singapurlik maktab o'quvchilari PIRLS, TIMSS, PISA xalqaro tadqiqotlari bo'yicha birinchi o'rinlarni mustahkam egallab kelmoqda. Uning bunday muvaffaqiyatli tajribasi quyidagicha asoslanadi.

Singapur - Ikkinchi jahon urushidan keyin dunyo xaritasida paydo bo'lgan juda yosh davlat. 1960-yillarga qadar Buyuk Britaniyaning kichik ko'p millatli mustamlakasida umumiy ta'lim tizimi mavjud emas edi. Hukumat ingliz maktablarini asosan mustamlakachilar bolalari uchun olib bordi, asosiy etnik guruhlar - xitoylar, hindlar va malaylar - ingliz tilini bilmas va oliy ta'lim olish imkoniyatiga ham ega emas edi. Mustaqillikka erishgach, qashshoqlik va ishsizlikka qaramay, hukumat inson kapitaliga sarmoya kiritishga qaror qildi. U «intellektual modernizatsiya» va yagona millat shakllanishiga urg'u berdi.

Hozirgi bosqichda Xitoyning o'rta va oliy ta'limni isloh qilish bo'yicha strategik rejasi 2002 yilda Xitoy Kommunistik partiyasining 16-s'ezdida tasdiqlangan 2020 yilgacha mamlakatda kichik farovonlik jamiyatini qurish rejalari orqali amalga oshirildi. 2020 yilga kelib ushbu mezonlar quyidagi istiqbollarni nazarda tutadi: to'liq o'rta maktab darajasida ta'limni kengaytirish; talabalar sonini 32 million kishiga yetkazish; mamlakat aholisining 30% dan ortig'ini ta'lim bilan qamrab olish. Shu bilan birga millatning mafkuraviy, axloqiy, ilmiy-madaniy xususiyatlarini takomillashtirish zarurati ham belgilab berildi².

Finlyandiya, shubhasiz, o'qish uchun eng yaxshi mamlakatlardan biri. Mamlakat ta'lim tizimining yuqoriligini ko'rsatuvchi ayrim dalillar: - Finlyandiya dunyodagi savodxonlik darajasi yuqori 8-davlatdir; - mamlakatlar bo'yicha ta'lim reytingida Finlyandiya 2021-yilda 3-o'rinda jami 1.631K ballga ega; - Finlyandiya o'rta maktabni tugatish darajasi bo'yicha eng yuqori o'ringa ega; - Jahon Iqtisodiy Forumining Global raqobatbardosh tadqiqoti Finlyandiyani dunyodagi eng rivojlangan ta'limga ega mamlakat deb topdi. Endi Finlyandiya ta'lim tizimi har doim ham shunday bo'lmagan. Agar o'tmishga qaytadigan bo'lsak, bu deyarli 50 yil oldin Finlyandiya hukumati ta'lim tizimini o'rganib chiqdi va hech bir davlatda qo'llanilmagan islohotlarni amalga oshirdi. O'shanda boshlang'ich ta'limning asosiy bosqichidan oliy ta'lim darajasigacha bo'lgan butun tuzilma qayta ishlab chiqildi, u talabalarni

² Ли Сюй. Эволюция принципа справедливости и его реализация в государственной образовательной политике Китая: дис. ... канд. полит. наук: 23.00.02 / Ли Сюй. - М., 2015. - 188 с.

bosqichma-bosqich hayotiy ko'nikmalar bilan tarbiyalash shiori bilan qayta yaratildi ³.

References:

1. Li Syuy. Evolyusiya prinsipa spravедlivosti i yego realizatsiya v gosudarstvennoy obrazovatelnoy politike Kitaya: dis. ... kand. polit. nauk: 23.00.02 / Li Syuy. - M., 2015. - 188 s.
2. Novikova L.A., Ushakova L.K. Osobennosti srednego i vysshego obrazovaniya v Kitae // ISOM. 2017. №5-1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/osobennostisrednego-i-vysshego-obrazovaniya-v-kitae> (data obrasheniya: 16.01.2022).
3. Guleva M.A. Ekonomicheskie problemy sovremennoy sistemy obrazovaniya v KNR: dis.kand. ekon. nauk: 08.00.14 / Guleva Mariya Aleksandrovna. - M., 2015. - 172 s.
4. Shturba V.A., Vasilev S.S. Obrazovanie kak sotsialno- kulturnyy fenomen // Istoricheskaya i sotsialno-obrazovatel'naya mysl. - 2009. - № 1. - S. 6-18.
5. Su Szyun'yan', Syao Su. Osnovnyye formy i tendensii razvitiya sistemy inspektirovaniya i otsenki shkol v Kitae // Pedagogika. - 2011. - № 1. - S. 94-103.

³ <https://bigthink.com/the-present/finland-educationsystem-criticisms/>